

«TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXALOGIK JIHATLARI»

Abduhakimova Ra'no Ifthor qizi
SamDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba yoshlarimizning oila haqida savodxonlik darajasi nechog'lik muhim ekanligi, oila qurishning o'z vaqtlari va jamiyatda oilaning o'rni, shu bilan birga, er-xotinlarning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi va hozirgi kunda yoshlar o'rtasidagi ajrimlarning oldini olish borasida shaxsiy takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Huquq, oila, nikoh, huquqiy savodxonlik, oilaviy yetuklik, jinsiy yetuklik, o'smir va o'spirinlik davri.

Mamlakatimizda oilaga katta e'tibor berilib kelmoqda, chunki oila davlatning, jamiyatning eng kichik bo'lagi hisoblanadi, shunday ekan, yoshlarimizni oilaga tayyorlash, ularga oila muqaddas dargoh ekanini tushuntirishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov oilaning jamiyat hayotidagi roli haqida: "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor" deb aytib o'tadilar. Darhaqiqat, inson ilk ta'lim-tarbiyani oiladan oladi. Yoshlarning olgan tarbiyasi, bilimi, albatta, kelajakdagi o'rmini, jamiyatda rolini, o'z mavqeyini topishga yordam beradi. Shuning uchun oilada hamma o'z rolini bilishi, turli xil kelishmovchiliklar sababli oilaning ko'zgusi darzketishi bu juda katta nadomat hisoblanishini yoshlarimizga yetkazishimiz muhimdir.

Oila va nikoh bo'yicha V.Karimova Z.Freyd va A.Adlerning g'oyalarini ma'qullagan holda shunday deydi: "Oila qurayotgan yosh-kelin kuyovlar o'zlari anglamagan ravishda o'zlari tarbiya topgan oilaning modelini yangi oilaga tadbiiq eta boshlaydilar".

Yoshlarimizni oila qurishlaridan oldin ular o'zlariga savol berishlari lozim. Men o'zi oilaga tayyormanmi? Yigitlarimiz: Men kelajakda ota mas'ulyatini, erlik mas'ulyatini, bajara olamanmi ularga ma'naviy va madaniy mehr bera olamanmi? Qizlarimiz esa: men onalik vazifasini, xotinlik, kelinlik vazifasini qay darajada, qanday bajaraman? Turmush o'rtog'imni yomon va yaxshi kunlarida yonida tura olamanmi? U bilan birga suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, oila qiyinchiliklariga dosh bera olamanmi? deb o'zlarini oilaga tayyorlashi kerak. Bilamizki, inson o'zini tarbiyalay olsa uning kelajagi porloq va yorug' bo'ladi.

Oila qurishdan ya'ni nikohlanishdan oldin "Yetti o'lchlab bir kes" degan maqolga amal qilib bir qarorga kelishlari talab qilinadi. Boshidan o'ylab qaror qilmas ekan, kelajagi noxush vaziyatlarga uchrab qolishi mumkun. Xalqimiz bekorga "Ko'z ochib ko'rganim ko'z qorachig'im, keyingi ko'rganim loy-u balchig'im" deb aytishmagan.

Shu o'rinda Kaykuvus "Qobusnoma" asarida o'g'liga shunday nasihat qiladi, uylanmagan o'g'lingni turmushga chiqmagan qizga uylantir. Agar uylanmagan o'g'lingni turmushga chiqqan qizga uylantirsang, yoki uylangan o'g'lingni turmushga chiqmagan qizga uylantirsang, yoshlar birlaridan birinchi turmush o'rtog'ini izlay boshlaydi. U payda ular birinchi turmush o'rtog'ini

2023: International Conference on Agriculture Sciences, Environment, Urban and Rural Development (Morocco)

<https://www.conferenceseries.info/index.php/morocco>

salbiy tarafini emas, aksincha, ijobiy taraflarini izlay va ta'kidlay boshlaydi. Shunday ekan, yoshlarimiz o'zlariga juft tanlar ekan, o'zlariga mos va xos turmush o'rtoq tanlashlari lozimdir.

Bundan 100 yillar oldin tengdoshlarimiz 15-16 yoshda oilaviy hayotga yetuklik talablari bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga yetar ekan ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlar bolalarni odatda 13-14 yoshdan shogirdlikka berishgan) ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilinmagan. 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mobodo shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan.

Bugungi yoshlarimiz 12-13 yoshda balog'atga yetishadilar va aksariyat hollarda oradan 7-8 yil o'tib qizlarimiz 18-19 yoshda yigitlarimiz 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqsodiy jihatdan, na ijtimoiy jihatdan va na psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladi. Bunday hollarda shubhasiz avvalgi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradilar.

O'zbekiston Respublikasining oila kodeksida ko'rsatilganidek, "Yigit yoshi 18 yosh, qiz yoshi 17 yoshga to'lganda ixtiyoriy ravishda oila qurishlari mumkin " Ammo, bugungi kunning ma'naviy, iqsodiy- ijtimoiy talablari shu yoshda oila qurganlarni to'la qilib, bir qancha ijtimoiy iqsodiy va ma'naviy muommolarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, qizlarimiz 20-22 yoshda, yigitlarimiz 25-27 yoshda, oila mas'uliyatini yelkalariga olib oilaga tayyor bo'lishmoqda. Bu yoshda, albatta, yoshlarimiz oila haqida ma'lumotga ega bo'lishadi va aksariyat yoshlarimiz talaba yoki o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlayotgan bo'lishadi. Yoshlarimiz bugungi kun statistik ma'lumotlarga qaraganda, bir-birlarini tushunmasligida, xarakteri mos kelmasligidan ajrimlar soni ortib bormoqda. Turmush qurgan yosh oilani ikkiga bo'lib ma'lumotlar yig'ildi. Birinchi guruh yoshlari sevib-sevilib turmush qurgan, ikkinchi turdagi yoshlarimiz esa ota-onasi yoki qavm-qarindoshlari orqali tanishib bir-birlariga ma'qul tushib turmush qurgan yoshlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar soni 2 886 296 tani, birgina joriy yilning oktyabr oyi yakuniga ko'ra esa yangi rasmiylashtirilgan nikohlar soni 214 923 tani tashkil etmoqda. Lekin, 2022-yilning yanvar-oktyabr oylarida oilaga qurganiga hali 5 yil to'lmagan oilalar o'rtasiga ajrimlar 17 628 tani tashkil etmoqda.

Birinchi turdagi yoshlarimizda ajrimlar ko'proq chiqmoqda, chunki yigit va qiz uchrashib sevisadilar, lekin, o'sha vaqt davomida o'zlarini faqat yaxshi tomonlarini, yaxshi xarakterini ko'rsatadilar. To'ydan keyin esa yangicha xurmacha qiliqlarini ko'rsata boshlaydilar. Qarabsizki, o'rta sovuqchilik, dil qoraliklar yog'ila boshlaydi. So'ngra bir-birimizga to'g'ri kelmadik, biz yashay olmaymiz deb hayotga yengil qarashib ajrimlar bo'lmoqda. Ikkinchi turdagi yoshlarimiz esa bir-birlarini to'ydan keyin o'rganishib, moslashib, turmush shunaqa bo'larkanda deb hayotga ko'nib ketishmoqda .

Yoshlarimizning o'rtasiga yosh ham nihoyatda ahamiyatlidir, ya'ni er- xotinnig orasi teng yosh bo'lsa ayol kishi gapini o'tkazishga harakat qiladi, aksincha 10-12 yosh bo'lsa dunyoqarashlari farqi yuqori darajada bo'lib qoladi. Er-xotinlarning yoshlarining farqi 1 yoshdan 8 yoshgacha norma yosh hisoblanadi.

Shunday qilib, oila o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirra munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekiston olimlar (M.Davletshin, G'.Shoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov, V.Karimova va boshqalar) tomonidan o'rganildi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, uqqan va o'qigan, oq va qora, yaxshi va yomonni farqiga boradigan, hayot zahmatlaridan xabardor sabrli, itoatli yigit va qizlarimiz mukammal va baxtli oila yarata olishadilar. Shu bilan birga muhabbat qo'yishlarida tashqi go'zalikka emas, balki ichki go'zaliqiga, suratiga emas siyratini sevishi xulq-atvorini boricha qabul qilib yashashlari darkor.

Xalqimizda bir hikmat bor: "Ayol har doim erkak kishidan bir pog'ona pastda bo'ladi, chuki ayollar erkaklarning qovurg'alaridan yaratilgan. Erkaklar esa ayol kishini to'g'rilashga urinmang, ayol erkakning qiyshiq qovurg'asidan yaralgan ekan, to'g'rlayman desangiz sindirib yuborishingiz mumkun. Aksincha, siz ayyolarga mehr bering va tarbiya qiling" deyishadi, shundagina siz oilaning farovonligini kafolatlay olasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov B.M. "Psixologiya" "Voris-nashriyot" Toshkent-2012 248-249 b
2. Alqarov R.Sh. R.Mamatqulova, H.D.Norqulov. "Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi", "Toshkent -2009", 173-174-b
3. Karimova V.M. "Oila Psixologiyasi" Toshkent. 2007. 78b